



ZULFIYA MO‘MINOVA SHE’RIYATIDA UMUMINSONIY-ESTETIK QARASHLAR TALQINI

Nasiba Norova,
BuxDU dotsenti, f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining iste’dodli vakillaridan biri bo‘lgan Zulfiya Mo‘minova ijodida umuminsoniy-estetik qarashlarning badiiy talqini tadqiq etiladi. Shoir she’riyatida inson va tabiat munosabati, mehr-muhabbat, ezgulik, vatanparvarlik, oilaviy qadriyatlar hamda ma’naviy komillik kabi umumbashariy g‘oyalar poetik obrazlar va ramziy ifodalar vositasida tahlil qilinadi. Shuningdek, shoiraning milliy qadriyatlarni umuminsoniy mazmun bilan uyg‘unlashtirish mahorati, lirikasidagi badiiy-estetik tamoyillar va individual uslub xususiyatlari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Zulfiya Mo‘minova, she’riyat, uminsoniy qadriyatlar, badiiy talqin, poetik obraz, milliylik va umumbashariylik, lirik qahramon, ma’naviy qadriyatlar.

Har bir milliy adabiyotning taraqqiyot darajasi unda shakllangan ijodiy tafakkur rang-barangligi bilan belgilanadi. Shu ma’noda o‘zbek she’riyati ko‘p asrlik rivojlanish jarayonida turli poetik qarashlar, uslubiy izlanishlar va estetik tamoyillarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab badiiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda ayol ijodkorlar tomonidan yaratilgan she’riy meros alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki ayollar she’riyati nafaqat adabiy jarayonning tarkibiy qismi, balki milliy poetik tafakkurning o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek ayollar she’riyatining tarixiy tadriji davomida mazmun va shakl jihatidan boyib, yangi badiiy ifoda usullarini vujudga keltirdi. Shoiralar ijodida individual dunyoqarash, estetik ideal, obraz yaratish tamoyillari va poetik tilning imkoniyatlari turlicha namoyon bo‘lib, bu holat she’riyatning janr hamda uslub rang-barangligini ta’minladi. Ayniqsa, zamonaviy adabiy jarayon ayol shoiralarning badiiy tajribalari va poetik izlanishlarini chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda.

Bugungi adabiyotshunoslikda o‘zbek ayollar she’riyatini poetik tafakkur, badiiy mahorat, obrazlar tizimi va uslubiy xususiyatlar nuqtayi nazaridan tadqiq etish muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada o‘zbek ayollar she’riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” Zulfiya Mo‘minova she’riyatining badiiy-estetik xususiyatlari hamda uning milliy adabiyot taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi.



“Zulfiya Mo‘minova 1959-yil 15-iyulda Samarqand viloyatining Narpay tumanida tug‘ilgan. ToshDUning filologiya fakultetini tamomlagan (1985). Dastlabki she‘riy to‘plami “Vatan tashlab ketmaydi” (1888). Shundan so‘ng shoiraning “Beshiklarni asragin, dunyo” (1988), “Yonayotgan ayol” (1993), “Azizim, baxtiyorman” (1997) kabi she‘riy to‘plamlari nashr etilgan, “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan (2000)”¹.

Millat va Vatan taqdiriga dahldorlik, bugungi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga shoira ijodi misolida berilgan baho, munosabat kishini befarqlikdan, loqaydlikdan uyg‘otadi.

U ham Sahar turib omonlik kutar

Qizlari- oy kabi to‘linlariga.

Uyalmasin debmi qaramay o‘tar

O‘zidan kech turgan kelinlariga².

“O‘zbekiston otamga o‘xshar” she‘ridan olingan ushbu satrlarda o‘zbek xalqiga xususan, otalariga xos sadoqat, or-nomus, bag‘rikenglik, oliyjanoblik kabi fazilatlarni ulug‘laydi va madh etadi.

Shoiraning Vatan haqidagi satrlari o‘zgacha ohorli tashbehlarida akslanadi. O‘z tabiri bilan aytganda 70-80 -yillar ijodkorlarni avlodi adabiyot maydonida yangi sahifalar ochib turgan bir payda ularning orasida nomini qozonish ham hazil jarayon bo‘lmagan. Lekin u tuyg‘ularini, o‘tli, nafis va hayajonli qilib xalqqa ulashdi.

Shu Vatanni sevaman jondan,

Sevdim, yana go‘zal bo‘ldi u.

Oqqush bo‘ldi har tushgan qori,

Har yomg‘iri asal bo‘ldi u.

Qo‘linga suv quydi bulog‘i,

Shamollari tutdilar sochiq,

U qo‘lini ochgani sayin

Yo‘li bo‘ldi shunchalar ochiq³

Mazkur she‘riy parcha Vatan va inson o‘rtasidagi ma‘naviy-ruhiy mushtaraklikni badiiy-estetik talqin etishi bilan ahamiyatlidir. Asarda lirik qahramonning Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbati tabiat obrazlari orqali poetik ifodalanib, yurtning har bir unsuri – qor, yomg‘ir, buloq va shamol ramziy ma‘no kasb etadi. Shoir metafora hamda poetik tasvir vositalaridan unumli foydalanib, Vatanni mehribon va hayotbaxsh makon sifatida gavdalandiradi. Tabiat detallarining insoniy xususiyatlar bilan uyg‘unlashtirilishi esa lirik qahramonning ichki kechinmalari va ona

¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/zulfiya-mo-minova-1959>

² Мўминова З.Болага китоб беринг. – Тошкент: Akademyashr, 2022.-Б.9.

³ O‘sha kitob. 15-bet.





yurtga sadoqat tuygʻusini yanada taʼsirchan ochishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sheʼrda Vatan konsepti nafaqat geografik makon, balki insonning maʼnaviy tayanchi, ruhiy quvvati va estetik idealining timsoli sifatida badiiy talqin etiladi. “Bolaga kitob bering” toʻplamidan oʻrin olgan “BMTda yangrar Navoiy tili”, “Vatan bayrogʻi”, “Oʻzbekiston”, “Toshkent”, “Vatan”, “Ona tilim”, “Samarqandjonim”, “Halvolari jonga malham”, “Vatan tinch- biz tinch”, “Vatanni har kimsaga ishonib boʻlmas”, “Bobur Vatanga intilur”, “Onam oyning qizi”, “Vatan degan soʻz” kabi oʻndan ortiq sheʼrlarida Vatan va vatanparvarlik gʻoyalari mujassam etilganligini koʻramiz.

*Onam oyning qizi – oyshahar edi,
Otam togʻlar oʻgʻli – toshchaynar edi.
Onam ohularning koʻzidan oʻpib,
Otam ayiq bilan tosh oʻynar edi.
Onam aytsa, sellar oʻpkasin bosib,
Aylanib oʻtishning yoʻlin qilardi.
Otam saratonga choy damlab berib,
Oʻtgan-u ketgandan gurning qilardi.⁴*

Ushbu sheʼrda lirik qahramon ota va ona obrazlari orqali insonning ildizi, nasl-nasabi, maʼnaviy dunyosi hamda tabiat bilan uygʻunligi haqidagi falsafiy qarashlarni badiiy talqin etadi. Asarda milliy tafakkur va umuminsoniy qadriyatlar oʻzaro uygʻunlashib, ramziy-metaforik tasvirlar vositasida yuksak poetik umumlashma darajasiga koʻtarilgan.

Sheʼrning milliy jihati, avvalo, unda oʻzbek xalqining qadimiy mifologik tasavvurlari, tabiatga yaqin turmush tarzi va xalqona obrazlar tizimining badiiy talqinida namoyon boʻladi. “Onam oyning qizi”, “Otam togʻlar oʻgʻli” kabi ifodalar Sharq poetikasida keng uchraydigan samoviy va tabiiy ibtidolarga murojaatni anglatadi. Oy obrazi oʻzbek madaniyatida goʻzallik, poklik, latofat va ayollik timsoli sifatida qadrlansa, togʻ obrazi matonat, bardoshlilik, qudrat va erk timsoli sifatida talqin etiladi. Demak, shoir ona va ota siymosida xalqning ideal axloqiy-meʼyorlarini mujassamlashtiradi. Sheʼrda qoʻllangan “ohu”, “ayiq”, “sel”, “saraton” kabi obrazlar ham xalq ogʻzaki ijodi, afsona va rivoyatlarga xos poetik tafakkur mahsuli boʻlib, sheʼrning milliy ruhini kuchaytiradi. Onaning “ohularning koʻzidan oʻpishi”, “sellar oʻpkasin bosib aylanib oʻtishi”, otaning esa “ayiq bilan tosh oʻynashi”, “saratonga choy damlab berishi” singari mubolagʻaviy tasvirlar inson va tabiat oʻrtasidagi azaliy uygʻunlik, mehr-muhabbat va oʻzaro hurmat gʻoyasini ifodalaydi. Bu esa millatidan qatʼi nazar, barcha xalqlar uchun mushtarak boʻlgan ekologik tafakkur, tabiatni eʼzozlash va unga mehr bilan munosabatda boʻlish kabi umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi.

⁴ Oʻsha kitob.4-





Bundan tashqari, she'rd a ota va ona obrazlarining ideallashtirilishi orqali insoniyat madaniyatida qadimdan mavjud bo'lgan ota-onaga ehtirom, nasl davomiyligi va oilaviy qadriyatlarning ulug'lanishi kuzatiladi. Lirik qahramon o'z kelib chiqishini nafaqat biologik, balki ma'naviy va kosmik ildizlar bilan bog'laydi. Shu jihatdan asarda insonning o'z o'tmishi, ajdodlari va tabiat bilan uzviy aloqadorligi haqidagi falsafiy konsepsiya ilgari suriladi.

Shoiraning ayollar shaniga yozilgan ba'zi she'rlari ayollar madhiyasi aylanib ulgurgan desak adashmaymiz.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib⁵.

Satrlarda ayol tabiatining murakkabligi, uning ichki kechinmalari va ma'naviy qudrati badiiy-falsafiy ruhda talqin etilgan. Shoir ayolning tashqi xotirjamligi va kulgisiga aldanib, uning hayotidan mamnun degan xulosaga kelmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Chunki ayol ko'pincha dard-u alamlarini, ruhiy iztiroblarini ichiga yutib yashaydi, boshqalarga esa tabassum ulashadi. Shu jihatdan she'rd a ayolning sabr-bardoshi, matonati va ruhiy kuchi ulug'lanadi.

Yoki,

Ayolga gul bering shunday gullarki,
Erkak yuragidan ungan gullarni,
Ayolga gul bering shunday gullarki,
Erkakning mehridan ungan gullarni⁶.

Misralarda ayol obrazi zohiran nozik, ammo botinan qudratli inson sifatida gavdalanadi. Shoir uning kulgisi ortida yashiringan iztiroblarni ham, ana shu tabassum bilan hayotni yengib o'tish qobiliyatini ham bir vaqtning o'zida ko'rsatadi. Natijada she'r ayolning ruhiy olamiga chuqur nazar tashlashga, uning baxti va saodatini tashqi belgilar bilan emas, balki insoniy e'tibor va mehr bilan baholashga chorlaydi. Asarning ta'sir kuchi ham aynan ana shu hayotiy haqiqatning samimiy va ta'sirchan ifodalanishida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Mo'minova she'riyati milliy va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy-estetik uyg'unligini o'zida mujassam etgan serma'no poetik hodisalardan biridir. Shoira inson ruhiyati, ona va Vatanga muhabbat, oilaviy

⁵ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/zulfiya-mo-minova-1959>

⁶ Мўминова З.Болага китоб беринг. – Тошкент: Akademyashr,2022.-Б.9.





qadriyatlar, tabiat va inson munosabatlari, mehr-oqibat hamda ezgulik kabi umumbashariy g'oyalarni o'ziga xos obrazlar tizimi va poetik vositalar orqali yuksak badiiy saviyada ifoda etadi. Uning she'rlarida milliy tafakkur va xalqona ruh zamonaviy estetik qarashlar bilan uyg'unlashib, o'quvchini ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklovchi kuchli ta'sir vositasiga aylanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Zulfiya Mo'minova lirikasida umuminsoniy-estetik qarashlar alohida bir mavzu sifatida emas, balki shoiraning badiiy tafakkuri va individual uslubining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois uning she'riyati nafaqat o'zbek adabiyotining milliy badiiy an'alarini davom ettiradi, balki umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etuvchi, estetik tafakkurni boyituvchi muhim adabiy hodisa sifatida ham alohida ilmiy va adabiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – C. 913-915.
2. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
3. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 100.
4. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
5. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
6. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
7. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
8. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
9. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.



10. Norova N. Usmon Qo 'chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
11. Baxtiyrovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyrovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasasi tayanch doktranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.
12. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси, (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.
13. Norova N. et al. RETRACTED: About some of Osman Kochqor's translations In Uzar literature //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 538. – С. 05018.
14. Yoriyevna O. N. Yangi o'zbek she'riyatida qo'llangan daraxt obrazlari ifodasida an'ana va novatorlik //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 386-391.
15. Yoriyevna O. R. N. ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA RAMZIY-FLORISTIK OBRAZLAR IFODASI //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 193-199.
16. O'roqova N., Latipov H., Normuratova N. The role of flora and fauna in expressing the artistic view of the universe //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 587. – С. 04013.
17. O'ROQOVA N. O 'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAUNISTIK OBRAZLARNING AN'ANAVIYLIGI //News of the NUUZ. – 2024. – Т. 1. – №. 1.10. 1. – С. 327-328.
18. Yoriyevna O. N. et al. ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA FLORISTIK OBRAZLAR TALQINI //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 2. – №. 24. – С. 26-32.
19. O'roqova Nafosat Yoriyevna. (2024). ZAMONAVIY SHE'RIYATDA LOLA VA LOLAQIZG'ALDOQ OBRAZLARINING RAMZIY IFODALARI. *Hamkor Konferensiyalar*, 1(2), 223–228. Retrieved from <https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/167>
20. O'roqova, N. (2024). SADRIDDIN AYNIY USLUBIGA DOIR CHIZGILAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 47(47). Извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12188
21. O'roqova N. O 'ZBEK SHE'RIYATIDA KAPALAK OBRAZI TALQINI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 47. – №. 47.
22. Yorievna, U. N., & Ikhtiyar's, K. N. (2024). National Portrait in Otkir Hashimov's Stories. *Best Journal of Innovation in Science, Research and*





Development, 3(3), 831–837. Retrieved from
<https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1923>

23. Uroкова, N. (2019). GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES. Theoretical & Applied Science, (8), 57-59.

24. Uroкова, N. (2022). MASNAVI IN MODERN UZBEK PROSE. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(3), 63-65.

25. Yorievna, U. N. (2022). Masnavi Genre in Uzbek Classical Poetry: Nature, Genesis, Features. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(10), 67-70.

26. Yoriyevna, U. N. (2023). THE ORIGINALITY AND GENESIS OF ANIMAL SYMBOLISM IN POETRY. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 18, 20-23.

27. Yoriyevna, U. N. (2023). RELATIONSHIPS BETWEEN HUMANS AND ANIMALS. Confrencea, 8(1), 123-126.

28. O'roqova, N. (2022). O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATIDA MASNAVIY JANRI TABIATI, GENEZISI, XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(10), 38–42. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/4041>

29. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

30. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

31. Eshonqulov H. Alisher Navoiy oshiqona g'azallarining badiiy qurilishiga oid o'ziga xosliklar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

32. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

33. Tursunovna S. D., Pirimovich E. H. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER.

34. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – Т. 3. – №. 3.

35. 6. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.

36. Tursunovna S. D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 14.





37. Sodikova D. T. GLIMPSES TO FEMININE LITERATURE DURING THE DYNASTY OF BUKHARA EMIRATE: ALL ABOUT A POETESS MUSLIKHABEGIM MISKIN AND HER LITERARY HERITAGE //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 174-176.
38. Sodikova T. D. Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
39. Содикова Д. Т. ПРОБЛЕМЫ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ВСЕ О ПОЭТЕССЕ МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН И ЕЕ ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ //ББК 81.632 А43. – С. 174.
40. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetess during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.
41. Садикова D. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
42. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.
43. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
44. Садикова D. The Expression of Muslikha begim Miskin's Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.
45. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.
46. Садикова D. The Expression of Muslikha begim Miskin's Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.
47. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetess during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.
48. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 629-634.



49. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. IMRAS, 7(1), 779-783.
50. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(24), 22-25.
51. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРИНИНГ ЎРНИ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(22), 66-70.
52. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In E Conference Zone (pp. 71-73).
53. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – S. 47-49.
54. TORAYEVA, L. (2023). ЎРИМ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ОБРАЗЛАР ТАРКИБИ ВА БАДИИЙ-КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42). НАУЧНЫХ
55. Omonovna, T. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. International Journal of Formal Education, 3(4), 34-39.
56. Omonovna, T. L. (2024). A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(20), 199-204.
57. To'rayeva, L. (2024). O'ZBEK XALQ O'YINLARIDA "BOBODEHQON" KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(20), 234-241.
58. To'rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasida hayotsevarlik g'oyalari. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).
59. Rajabova, R. Z. EXPRESSIVENESS OF GENRE CHARACTERS INHERENT IN FOLK RIDDLES IN LITERARY RIDDLES.
60. Zaripovich, R. D., Matchonboyevich, S. S. A., Aminbayevna, R. Z. S., & Zaripovna, R. R. N. (2025). Belief Systems of the Uzbek People: Shamans and Bakshis. *Journal of Chemical Health Risks*, 15(6), 3512.
61. Раджабова, Р. З. (2020). PROSE TALES AND THE INFLUENCE OF FOLK TALES ON THEIR WORK. ФИЛОЛОГИЯ, ЛИНГВИСТИКА, ЖУРНАЛИСТИКА: АКТУАЛЬНЫЕ, 9.
62. Rajabova, R. N. Z. (2020). A LITERARY RIDDLE FROM A FOLK RIDDLE. In *European Scientific Conference* (pp. 139-141).